



O'ZBEKISTONDA KIMYO SANOATINING RIVOJLANISHI TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Shomurotova Shirin Xajiyevna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Tabiiy fanlar
fakulteti, Kimyo kafedrasi professori*

Muhiddinova Muqaddas Husniddin qizi

Kimyo yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanishi tendensiyalari va istiqbollari to'g'risida yoritilgan. O'zbekiston kimyo sanoati ancha yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, hozirgi zamonga mos kimyo mahsulotlarini ishlab chiqariladi, plastmassalar, sun'iy tola va sintetik kauchuk, lak-buyoqlar, kislota va ishqorlar, dori-darmonlar, shuningdek ko'plab kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bu sanoatni rivojlantirish uchun O'zbekiston ham Osiyo mamlakatlari singari katta manbalarga egadir, ayniqsa gaz, neft, gaz kondensatlari, elektr quvvati, ko'mir sanoati va qishloq xo'jaligi chiqindilari, mineral xom ashyolar hamda mehnat resurslari juda ko'pdir.

Kalit so'zlar: kimyo sanoati, tendensiyalari, neft, gaz, qishloq xo'jaligi chiqindilari.

Abstract: This article is about the development trends and prospects of the chemical industry in Uzbekistan. The chemical industry of Uzbekistan is very well developed, modern chemical products are produced, plastics, artificial fiber and synthetic rubber, lacquers and paints, acids and alkalis, medicines, as well as many chemical products are produced. At present, the demand for chemical industry products is increasing day by day, therefore, great attention is paid to the development of this industry in the Republic. For the development of this industry, Uzbekistan, like Asian countries, has great resources, especially gas, oil, gas condensates, electric power, coal industry and agricultural waste, mineral raw materials and labor resources.



Key words: chemical industry, trends, oil, gas, agricultural waste.

Аннотация: Данная статья посвящена тенденциям и перспективам развития химической промышленности Узбекистана. Химическая промышленность Узбекистана очень хорошо развита, производятся современные химические продукты, производятся пластмассы, искусственное волокно и синтетический каучук, лаки и краски, кислоты и щелочи, лекарства, а также многие химические продукты. В настоящее время спрос на продукцию химической промышленности увеличивается с каждым днем, поэтому развитию этой отрасли в республике уделяется большое внимание. Для развития этой отрасли Узбекистан, как и страны Азии, располагает большими ресурсами, особенно газом, нефтью, газовым конденсатом, электроэнергией, отходами угольной промышленности и сельского хозяйства, минеральным сырьем и трудовыми ресурсами.

Ключевые слова: химическая промышленность, тенденции, нефть, газ, сельскохозяйственные отходы.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni faqat sinf ichi faoliyat bilan chegaralanmay, balki sinfdan tashqi mashg'ulotlarning samaradorligiga ham bog'liq bo'lib, bu o'quvchining shaxsini rivojlantirish, ijtimoiylashuvi va kasbiy yo'naltirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mineral o'g'itlarni sotishning bozor mexanizmlarini joriy etish, kimyo sanoati korxonalarining qarzдорliklarini restrukturizatsiya qilish yuzasidan ko'rilgan choralar ularni moliyaviy sog'lomlashtirishga va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirishga imkon berdi.

Kimyo sanoati— og'ir sanoat tarmoqlaridan biri, xilma-xil kimyoviy mahsulotlar turlari: kon-kimyo xom ashyosi, asosiy kimyo mahsulotlari (ammiak, noorganik kislotalar, ishqorlar, mineral o'g'itlar, soda, xlor va xlorli mahsulotlar, suyultirilgan gazlar va boshqalar), plastmassa va sintetik smolalar, shu jumladan, kaprolaktam, sellyuloza atsetatlari, kimyoviy tola va iplar, plastmassa va shisha-plastiklardan materiallar va buyumlar, lok-bo'yoq materiallari, sintetik bo'yoqlar,



kimyoviy reaktivlar, fotokimyo mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari va boshqalarni ishlab chiqaradi.

O'zbekistonda bundan tashqari osh tuzi, fosforit, kaliy tuzi, ohak, gips, oltingugurt konlari, rangdor metallurgiya va paxtachilik sanoat chiqindilari va boshqa xom ashyolarga boydir. Shuning uchun hozirgi zamon kimyo sanoati O'zbekistonda rivojlanishi qulay va zururdir. Hozirgi kunda O'zbekistonda kimyo sanoatini barpo etish va uni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan xomashyo bazasi va shart-sharoitlar hammasi yetarli darajada mavjud bo'lgan bo'lsa ham kimyo sanoati nisbatan ancha kech paydo bo'ldi.

Kimyo sanoati uchun hom ashyo bazasi Qizilqumda fosforit kombinati, Tyubegatanda kaliy tuzlarini ishlab chiqarish zavodi, ishlab chiqarish birlashmasi «Ammofos» va Samarqand kimyo zavodini rekonstruktsiya qilish, Farg'ona «Azot» «Navoiyazot», «Elektroximprom (Chirchiq) ishlab chiqarish birlashmalarini modernizatsiyalash ko'zda tutilgan. Yangi kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha kaustik soda, xlor, vodorod xlorid, poliamid-6, paxta sellyulozasi, melaminlarni ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish ko'zda tutilgan. Undan tashqari paxta tsellyuzasi asosida nitrotsellyuloza, polietilen, polimid tolalari, protravitellar, gerbitsidlar, fungitsidlar, defoliantlar kabi mahsulotlarni ham korxonalarini qurib bitirish mo'ljallangan. Kimyo sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlar sirasiga kiradi va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, mineral o'g'itlar chiqaruvchi korxonalarni qurish orqali tashkil topgan.

Hozirgi vaqtda «Maksam-Chirchiq», «Navoiyazot» va «Farg'onaazot» aksiyadorlik jamiyatlari azotli o'g'itlar: ammiakli selitra, karbamid, ammoniy sulfati ishlab chiqaradilar. «Ammofos», «Samarqandkimyo» va «Qo'qon superfosfat zavodi» ochiq aksiyadorlik jamiyatlari fosforli o'g'itlar: ammos, suprefos, oddiy ammoniyli superfosfat, ammoniysulfofosfat va nitrokaltsiyfosfat ishlab chiqaradilar. Ularni xom ashyo bilan Qizilqum fosforit kombinati ta'minlaydi. «Elektroximzavod» AJ QK o'simliklarni muhofaza qilish kimyo vositalarni ishlab chiqaradi.



Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kimyo sanoatini rivojlanishida «Navoiyazot» OAJ korxonaning o'rni yuqori. Bu korxonada 2010 yilda investitsiya siyosati natijasida bir qator loyihalar yaratildi. Shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, sanoatga ilg'or innovatsion texnologiyalarni ildam joriy etish, sanoat ichki kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish ham ko'p jihatdan ana shunga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Парпиев Н.А., Раҳимов Ҳ.Р., Муфтахов А.Г. Анорганик кимё назарий асослари. Т.: Ўзбекистон. 2000. 11-12 бетлар
2. Toshpulatov Yu.T., Raxmatullayev N.G. Anorganik kimyo (nazariy asoslari). T.: TDPU. 2005. 13-bet
3. Xajievna, S. S. (2023). Kimyoni o'qitishda innovatsion yondashuvdan foydalanish. Science and innovation, 2(Special Issue 7)